

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI



“Himoyaga tavsiya etilsin”:

Fakultet dekani v.b.

f.f.n., dotsent Z.B.Qobilova

2019-y

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
402 -guruh talabasi Asqarov Dilmurod Mo'sajon o'g'lining
“Amiriyning muxammasnavislik mahorati” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

Z.Qobilova,

o'zbek adabiyoti
kafedrasi dotsenti, f.f.n.



Taqrizchilar:

A.Turdaliyev,

Qo'qon madaniyati tarixi
davlat muzeyi filiali

Qo'qon adabiyoti muzeyi rahbari
filologiya fanlari nomzodi.



M.Rasulova

f.f.n., dotsent

“Himoyaga tavsiya etilsin”:

O'zbek adabiyoti kafedrasi mudiri

f.f.n., dotsent M.Jamoliddinov

2019-y



Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
402-guruh talabasi Asqarov Dilmurod Mo'sajon o'g'lining "Amiriyning
muxammasnavislik mahorati" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

ilmiy rahbar

XULOSASI

Adabiyotimiz tarixida "mumtoz" so'zi bilan sifatlanadigan davrga mansub ijodkorlarning asarlarini mutolaa qilish jarayonida ularning haqiqatan ham mumtoz, noyob, durdona asarlar ekanligiga amin bo'lamiz.

Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari haqida gap ketganda ham ana shu xususiyat namoyon bo'ladi. Ma'lumki, Qo'qon adabiy muhiti o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida hodisa sanaladi. Bu muhitning Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, G'oziy, Qoriy, Mahzuna, Fazliy kabi yetuk vakillari borki, bu ijodkorlarsiz o'zbek adabiyotini tasavvur qilish mushkuldir.

Amiriy boshchiligida tashkil etilgan Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodida lirik turning muxammas janri ko'plab namunalarini uchratish mumkin. Qo'qonlik shoirlarning aksariyati sohibidevon shoirlar bo'lishgan.

Talaba Asqarov Dilmurod o'z bitiruv malakaviy ishida Amiriyning muxammasnavislik mahorati masalasini tadqiq etishga harakat qilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

BMI uch bob asosida yoritilgan.

Birinchi bob **"Muxammas janri va uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni"** deb nomlanib, **"Muxammas janrining nazariy masalalari"** va **"Qo'qon adabiy muhitida muxammas janrining shakllanishi va taraqqiyoti"** fasllarini o'z ichiga oladi. Mazkur bobda adabiy muhitning tashkil etilishi bevosita Qo'qon xoni Umarxon nomi bilan bog'liq ekanligi, mazkur muhitning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari borligi aytib o'tgan. Muxammas janrining janr sifatida vujudga kelishi, o'zbek adabiyotida muxammaslarning o'rni, shakllari hamda Qo'qon adabiy muhitida muxammasnavislik an'anasi va Amiriyning muxammas

Ishning ikkinchi bobi **“Navoiy va Amiriy”** deb nomlanadi. Mazkur bob **“Amiriyning Alisher Navoiy g’azallariga bog’lagan taxmislari haqida ayrim qaydlar”**, **“Amiriy taxmislari badiiyati”** fasllaridan iborat. Mazkur bobda Alisher Navoiyning Amiriy lirikasiga badiiy ta’siri masalasi tadqiq qilingan. Amiriy ijodida Navoiy g’azallariga bog’lagan muxammaslar tahlil qilingan. Amiriy o’ziga ustoz deb bilgan Navoiyning ijodi bilan hamohangligi ochib berilgan.

Ishning uchinchi bobi **“Amiriy va qardosh xalqlar adabiyoti”** deb nomlanib, **“Fuzuliy va Amiriy”**, **“Amiriy va fors-tojik adabiyoti”** fasllarini o’z ichiga oladi. Mazkur bobda Amiriyning ustoz salafлари ijodiga munosabati, eng sara ijod namunalariga bog’lagan taxmislari tahlilga tortilgan. Qo’qon adabiy muhitida adabiy ta’sir va bahramandlik juda yuqori bo’lganligini Amiriy muxammaslarida ham ko’rishimiz mumkin.

Talaba Asqarov Dilmurod mazkur bobni yoritishda Qo’qon adabiy muhitiga oid ko’plab adabiyotlar bilan tanishgan. Shoir devonlarini ko’zdan kechirgan. Bu holat asarlar tahlilidan ko’rinib turibdi. Amiriyning muxammasnavislik mahorati masalasi lirik parchalar misolida ochib berilgan.

Ish yakunida muayyan xulosalarga kelingan.

Mulohazatalab o’rinlar ham bor. Masalan, ayrim baytlar, xususan Amiriy Navoiy g’azaliga bog’lagan muxammasi tahlili maromiga yetmagan. Tab’i xud muxammas haqida ma’lumot berilganligi yaxshi bo’lgan ammo tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Umuman, bu mulohazalar ishning umumiy qimmatiga putur yetkazmaydi. Asqarov Dilmurodning bitiruv malakaviy ishini tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:  Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.Qobilova

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
402-guruh talabasi Asqarov Dilmurod Mo'sajon o'g'lining "Amiriyning
muxammasnavislik mahorati" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
TAQRIZ

Qo'qon adabiy muhitining vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita Amir Umarxon nomi bilan bog'liq. Ijod ahlini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagani uchun ham uning atrofida 70 dan ortiq shoir to'plandi. Olimxon davridagi notinchliklar va turli tazyiqlar tufayli tug'ilgan yurtini tark etgan ko'plab shoirlar Umarxonning ijod ahliga xayrixoh va homiy ekanligini eshitib, yana Qo'qonga qaytdilar. Bugina emas. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Jizzax, Hisor, Xo'jand, hatto Hirot va Balhdan ham uning dovrug'i va ta'rifini eshitgan ijodkorlar Qo'qonga kelib, bu muhit doirasini yanada kengaytirdilar, mahalliy shoirlar ijodiga kuchli ta'sir o'tkazdilar, o'zlarining badiiy yetuk asarlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdilar.

Talaba Asqarov Dilmurod ham Amiriyning muxammasnavislik mahorati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini Amiriy devonidan o'rin olgan muxammaslarning o'ziga xos badiiyati va Qo'qon adabiy muhitida muxammasnavislik an'anasi rivojiga Amiriyning qo'shgan xissasini yoritishga harakat qilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

Talaba bitiruv malakaviy ishida Amiriyning Navoiy, Fuzuliy, Soib, Go'ziy hamda Sho'xiyga bog'lagan muxammaslariga murojaat qilgan. Mazkur shoir ijodini kuzatar ekan talaba muayyan xulosalarga kelgan.

Qo'qon adabiy muhitida eng ko'p ijod qilingan janrlardan biri muxammas janri tahlil ostiga olingan. Amiriyning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan muxammas janrining takomilida alohida o'rin tutganligi yetarli darajada asoslab berilgan. Ayniqsa, Amiriyning Navoiy, Fuzuliy, Soib g'azallariga bog'lagan muxammaslari tahlil etilgan. Muxammasning har ikki turi: ta'bi xud va

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

Talaba bitiruv malakaviy ishida, nafaqat, Isajon Sultonning yuqoridagi ikki romani balki, Beruniy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Navoiy, Bobur asarlariga ham murojaat qilgan. Qadimiy toshbitiklarimiz tarixiga yondashgan.

Talaba Ismoilova Sharofat o'z bitiruv malakaviy ishida zamonaviy o'zbek nasri, xususan, romanchiligida mumtoz an'alarimizning o'rnini va ahamiyatini ilmiy-badiiy tahlillarda ko'rsatgan.

Ishni kuzatish davomida ayrim mulohazalar ham tug'ildi. Bugungi adabiyot o'quvchiga faqatgina badiiy zavq emas, bilim-ko'nikmalar bilan birga ilmga qiziqish uyg'ota olish, ruhlantirish xususiyatlariga ham ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda talaba mana shu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarini boshqa adiblar, romanlar tahlilida ham davom ettirishi mumkin.

BMI bilan tanishib chiqqan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



**B. Hasanova,
Fil.f.f.d.(PhD)**